



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 178 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
Tojirova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	



XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNESNING AHAMIYATI VA UNING INNAVATSION RIVOJLANTIRISHDAGI MUHIM XUSUSIYATLARI



Ulmasova Oygul Baxtiyorovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
mustaqil ilmiy – tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari o'rganilgan. Kichik biznesni rivojlantirish xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynashi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, xizmatlar sohasi, kichik tadbirkorlik, samaradorlik, innovatsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, korxona, Doing Business, tadbirkorlik faoliyati, an'anaviy (klassik) tadbirkorlik, foyda, yuridik shaxslar, jamoa tadbirkorligi, xamkorlikdagi tadbirkorlik.

Abstract: This article examines the importance of small business in the development of the service sector and its important features in innovative development. It was noted that the development of small business plays an important role in improving the quality of service, creating new jobs and ensuring economic growth.

Key words: Small business, service sector, small entrepreneurship, efficiency, innovation, economic development, enterprise, Doing Business, entrepreneurial activity, Traditional (classical) entrepreneurship, profit, legal entities, collective entrepreneurship, partnership entrepreneurship.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение малого бизнеса в развитии сферы услуг и его важные особенности в инновационном развитии. Было отмечено, что развитие малого бизнеса играет важную роль в повышении качества обслуживания, создании новых рабочих мест и обеспечении экономического роста.

Ключевые слова: Малый бизнес, сфера услуг, малое предпринимательство, эффективность, инновации, экономическое развитие, предприятие, Doing Business, предпринимательская деятельность, Традиционное (классическое) предпринимательство, прибыль, юридические лица, коллективное предпринимательство, партнерское предпринимательство.

KIRISH

Iqtisodiyotda mamlakat taraqqiyotining muhim asoslaridan biri bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasini tizimli rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan, xizmat ko'rsatish taraqqiyotida tadbirkorlik muhitini shakllantirish, ayniqsa kichik biznes va tadbirkorlikka asoslangan innovatsion rivojlantirishga ustuvorlik berish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Respublikada "O'zbekiston-2030" strategiyasida qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqib, "... tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritish uchun eng qulay sharoitlar yaratish", shu bilan birga "kichik va o'rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyatlarini kengaytirish ... innovatsiyalar va start-up larni qo'llab -quvvatlash" vazifalarini amalga oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xizmatlar sohasini innovatsion taraqqiyot talablariga mos rivojlantirishda, tadbirkorlik faoliyati, ayniqsa kichik biznesni o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi olimlari va soxa mutaxasislari mazkur yo'nalishda bir qator yondashuvlarni asoslagan.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qadimdan kishilik jamiyati taraqqiyoti shunki ko'rsatadiki, insoniyat tadbirkorlikka alohida e'tibor qaratgan. Bu borada Qadimgi Yunon faylasufi Aristotelning "Ekonomika" asarida "tadbirkorlik bu - eng avvalo, dehqonchilik, hunarmandchilik, mayda savdoda band bo'lganlarning asosiy va sharaflil faoliyati" deb e'tirof etgan. Bu borada Amir Temurning "Temur tuzuklari"da ta'kidlanishicha "Azmi qat'iy, tadbirkor, xushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir",-deb e'tirof etilgan.

Fransuz iqtisodchisi R.Kantil'on bergan ta'rifiga ko'ra "tadbirkor voqea va xodisalarni oldindan ko'ra bilish xususiyatiga ega bo'lgan, o'z zimmasiga barcha ma'suliyatni olib tavakkal qiluvchi, o'z xatti xarakatlari tufayli daromad olishga umid qiluvchi, va xar qandan yuqotishlarga tayyor bo'lgan shaxsdir"

Amerikalik iqtisodchilardan, K.Makkonnel va S.Bryu fikricha, "tadbirkor tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida ishlab chiqarish omillarini birlashtiradi va "katalizitor" vazifasini bajaradi".

Respublikamiz iqtisodchilaridan, Sh.Shodmonov, M.Raxmatovlarning e'tirof etishicha "...tadbirkorlik biznesdan farq qilib, tadbirkorlik - maxsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishga ijodkorlik, yangilik yaratish ruhi asosida yondashish bilan bog'liq faoliyatdir. Biznes - esa unga nisbatan keng tushuncha bo'lib, umuman foyda olish nuqtayi nazaridan yuritiluvchi faoliyatdir".

O'zbek olimlari A.O'lmasov va M.Sharifxo'jaevlar " biznes keng ma'nodagi qonuniy yo'l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir... Tadbirkorlik - kishilar (mulkchilik sub'ektlari)ning moddiy va pul mablag'larini (kapitalini) amalda xo'jalik oborotiga tushirib, daromad topishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyatdir. Tadbirkorlik umuman pul topish emas, balki yaratuvchilik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi", deb ta'rif beradilar.

Shu bilan birga Respublikamizning yetakchi olimlaridan biri S.S.G'ulomovning e'tirof etishicha "tadbirkorlik faoliyati - biznesning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi va uning turli sohalarida amalga oshiriladi", shu bilan birga uning fikricha "tadbirkor - to'la yoki qisman moddiy mablag'ga yoki moliyaviy resurslarga ega bo'lgan g'ayratli inson bo'lib, u ushbu resurslarni o'z ishini (biznesini) tashkil qilish uchun ishga soladi".

Shunday ekan, iqtisodiy adabiyotlardan kelib chiqib bizning fikrimizga ko'ra tadbirkorlik bu foyda olish maqsadida biznesni tashkil etish jarayonidan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mullif tomonida ilmiy abstraksiyalash, analiz, sintez induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Tadbirkorlik faoliyati - bu shakli, turi va sohasidan qat'iy nazar, foyda olish va uni ko'paytirish maqsadida eng zamonaviy fan, texnika yutuqlari, innovatsiya, yangi texnologiyalarni qo'llagan xolda amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir".

Respublikamiz iqtisodiyotida tadbirkorlikning quyidagi shakllariga ruxsat etilgan:

yakka tartibdagi faoliyat;
yollanma mehnatni jalb etish asosida amalga oshiriladigan tadbirkorlik;
bir guruh fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan jamoa tadbirkorligi yoki hamkorlikdagi tadbirkorlik.

Tadbirkor quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning yangi shakllarini joriy etish;
- yangi sotish bozorlarini egallash va avvalgilaridan kengaytirilgan holda foydalanish;
- mavjud sanoat tarmog'ida ilgari qo'llanilmagan yangi ishlab chiqarish usullarini joriy etish;
- ishlab chiqarishda xom ashyoning yangi turidan foydalanish;
- yangi mahsulot ishlab chiqarish yoki avvalgisini sifat jihatdan takomillashtirish

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasini tadbirkorlik asosida innovatsion rivojlantirishning muhim yo'nalishi bu kichik biznes asosida xizmatlar sohasini innovatsion taraqqiy ettirish hisoblanadi. Shunday ekan, bu borada qator ilmiy tadqiqotlarni chuqur o'rganamiz.

"Kichik biznes - mulkchilik huquqi asosida mustaqil boshqariladigan, xo'jalik faoliyatini mustaqil ravishda tashkil etuvchi hamda iqtisodiyotning tegishli tarmog'ida ustunlik qilmaydigan tadbirkorlik subyekti hisoblanadi".

"Kichik biznes faoliyati esa - ma'lum bir o'rnatilgan xajmi va shakliga ko'ra, belgilangan me'yorga asoslangan subyektlarda foyda olish va uni ko'paytirishni ilm fanning oxirgi yutuqlaridan foydalangan xolda amalga oshiriladigan faoliyatdir".

Jahon amaliyoti tajribalaridan kelib chiqib, va uning mohiyati bo'yicha bir qator soha olimlarining ilmiy yondashuvlari asoslanildi.



Schaper va boshqalar (2014) kichik biznesni mustaqil ravishda boshqariladigan va o'zlarining sohaslarida hukmron mavqega ega bo'lmagan subyektlar sifatida ta'riflaydilar. Ushbu bizneslar odatda shaxsiylashtirilgan boshqaruv, cheklangan resurslar va mahalliy bozorlarni xizmatga olish bilan ajralib turadi. Shunga o'xshash ravishda, Stokes va Wilson (2010) kichik biznesni xodimlar soni, bozor ulushi va yillik aylanma kabi omillar asosida kichik miqyosdagi subyektlar sifatida tasvirlaydilar. Ushbu bizneslar ko'pincha egalarining boshqaruvida bo'lib, mulkchilik va boshqaruv o'rtasida ajratish mavjud emas.

Storey (1994) kichik firmalarni strukturaviy va operatsion xususiyatlarga urg'u berib ta'riflaydi, ularning bozor ulushi kichik, mulkdor yoki kichik guruhlar tomonidan boshqariladigan va egalarining kundalik faoliyatda faol ishtirok etishini ta'kidlaydi. Yevropa Komissiyasi (2003), o'z navbatida, kichik biznesni miqdoriy mezonlar bilan ta'riflaydi, ularga 50 nafargacha xodim va yillik aylanma yoki balans yig'indisi 10 million yevrodan oshmagan firmalar kiradi.

Kichik biznes – bu mustaqil ravishda egalik qilinadigan va boshqariladigan biznes bo'lib, o'z faoliyat sohasida hukmron mavqega ega emas va Kichik Bizneslar Boshqarmasi yoki davlat qonunlari tomonidan xodimlar soni va yillik daromad bo'yicha belgilangan me'yorlarga muvofiq keladi.

Kichik tadbirkorlik - bu tadbirkorlik faoliyati bo'lib, bozor iqtisodiyoti subyektlari tomonidan qonunlar, vakillik organlari va boshqa tartibga soluvchi organlar tomonidan belgilangan aniq sharoit va mezonlarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Kichik tadbirkorlik – bu tadbirkorlik faoliyati bo'lib, bozor iqtisodiyoti subyektlari tomonidan qonunlar, davlat organlari yoki boshqa vakillik tashkilotlari tomonidan belgilangan aniq mezonlar asosida amalga oshiriladi, ular ushbu tushunchani konstitutsiyalashtiradi.

Kichik biznes – bu, avvalo, yangi ish o'rinlarini yaratish, bozorda talab va taklif o'zgarishlariga tezkor javob berish, budjetlarni to'ldirishdir. Natijada, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish – bu o'zini va oilasini munosib hayot darajasi bilan ta'minlaydigan odamlar sonining o'sishidir.

Kichik biznes – bu har bir davlat va soha uchun individual mezonlarga javob beruvchi, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan tegishli tartibga soluvchi hujjatlarda bayon qilingan, tijorat usiyatiga ega bo'lgan xususiy korxonanidir.

Kichik biznes - bu kichik shakllarda amalga oshiriladigan biznes bo'lib, xususiy tadbirkorlar, kichik firmalar va kichik korxonalar tomonidan tadbirkorlik faoliyatiga tayangan.

Yuqorida bayon etilgan nazariy xulosalardan kelib chiqib, bugungi kunda xizmat ko'rsatish jadal taraqqiyotini ta'minlovchi kichik biznes quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Birinchidan, bugungi iqtisodiyotni jadal rivojlantirish sharoitida boshqa tarmoqlar singari xizmat ko'rsatishni innovatsion taraqqiyoti uchun kichik biznes egalari muhim investorlarni tezroq va jo'proq jalb etish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish sohasini jadal raqamlashtirish orqali kichik biznesni muhim regulyator sifatida soha samaradorligini oshirishni ta'minlaydi.

Uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish xizmatlar sohasini innovatsion taraqqiy ettirishga imkoniyat yaratib, aholi daromadini oshiradi va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatini vujudga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kichik biznes bo'yicha yanada qulay sharoitlar yaratilishi alohida muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berildi. Unga ko'ra, "Haqiqatdan ham, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz" degan qat'iy fikrni ilgari surdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki kichik biznesni (tadbirkorlikni) ilmiy asoslash uchun tadbirkorlik nazariyasiga asoslangan quyidagi ikkita modelni farqlash maqsadga muvofiq:

1. an'anaviy (klassik) tadbirkorlik;
2. innovatsion tadbirkorlik.

An'anaviy (klassik) tadbirkorlik – bu iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish, uning rentabelligini oshirish va xizmat ko'rsatish turlarini ke'gaytirishda xo'jalik yuritishning an'anaviy usullaridan foydalangan holda, resurslardan maksimal darajada samara olishga yo'naltirilgan an'anaviy, konservativ tadbirkorlikdir. An'anaviy tadbirkorlik mamlakatda ayni paytga qadar ma'lum bo'lgan va keng tarqalgan, faoliyatni tashkil etish va yuritishda ijodkorlik, yangicha yondashuv va usullarni taqozo etmaydigan, iqtisodiy yuksalishning ko'proq konyunkturaviy o'zgarishlariga xos vaziyatlardan unumli foydalanish orqali ta'minlanishiga asoslangan faoliyat turlari bilan shug'ullanish orqali amalga oshiriladi.

Innovatsion tadbirkorlik – bu yangilik yaratish maqsadida iqtisodiyotdagi hali ma'lum bo'lmagan yoki keng tarqalmagan omillarni foydalanish yoki ularni an'anaviy omillar bilan yangicha tarzda uyg'unlashtirish orqali yangicha yondashuv asosida olib boriladigan tadbirkorlik faoliyatidir innovatsion tadbirkorlikning ustun jihati – bu uning an'anaviy tadbirkorlikka nisbatan ko'proq natija olib kelishi hisoblanadi. Biroq, ayni paytda ta'kidlash lozimki, innovatsion tadbirkorlik tadbirkorlarning oldiga o'ziga xos talablar qo'yadi, ularning doimiy ravishda ijod qilishi va izlanishi, yangi bilimlarni o'zlashtirishi va amaliyotga joriy etishi, yangi texnologiyalarni qidirishi va ulardan samarali foydalanishini taqozo etadi.



Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jahon amaliyoti kichik biznes va tadbirkorlikni mamlakatdagi faolligini ifodalash bo'yicha xalqaro reyting – "Biznes yuritish(Doing Business)" reytingi mavjud bo'lib, mazkur reyting jahon amaliyotida 2003-yildan beri e'lon qilinib borilmoqda va respublikamiz mazkur reytingda keyingi yillarda 69-o'rin (2020) ekanligi e'tirof etilgan.

O'zbekistonning "Doing Business" xalqaro reytingidagi o'rnini yaxshilashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

birinchidan, tadbirkorlik subyektlari uchun to'siqlarsiz kredit olishni ta'minlash;

ikkinchidan, qarzdorlar va kreditorlarning ta'minlangan bitimlar bo'yicha huquqlarini kengaytirish, kreditt ma'lumoti almashinuvi mexanizmlarini takomillashtirish;

uchinchidan, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;

to'rtinchidan, to'lovga qobiliyatsizlikni hal qilish masalalarini takomillashtirish;

beshinchidan, elektr ta'minotiga ulanish tizimini takomillashtirish;

oltinchidan, qurilishga ruxsat olish jarayonini soddalashtirish va boshqalar.

"Biznes yuritish" hisobotida mamlakatimiz ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi "2019 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmonida ham belgilab berildi.

Kichik biznesni rivojlantirish strategiyasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

1.O'zbekistonning 2030-yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

2.barcha darajada ta'lim sifati va qamrovini oshirish uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash;

3.ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba – konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish;

4.innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag'lar kiritilishini ko'chaytirish, bu sohalaridagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish;

5.boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

6.mulkchilik huquqlari himoyasini ta'minlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

7.barqaror faoliyat yuritadigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish.

Jahonning barcha mamlakatlarida kichik biznes korxonalari milliy iqtisodiyotning poydevori hisoblanadi. Yalpi ichki mahsulot (YalM) o'sish sur'atlari hal qiluvchi darajada aynan ularga bog'liq, aslida, aholining farovonlik darajasi ham uning qanchalik rivojlanganligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra, kichik korxonalar, ularda ishlovchi soniga qarab ajratiladi:

- Sanoat va qo'rilishda 50 nafargacha;
- fan va ilmiy xizmatda – 10 nafargacha;
- qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish soxalarida – 25 nafargacha;
- noishlab chiqarish soxasida – 10 nafargacha;
- chakana savdoda – 5 nafargacha;
- ishchisi bo'lgan korxonalar, kichik biznes subyektlari qatoriga kiritilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari, kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasini oshirilishini, Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik sanoat zonalarining yaratilishi, xizmatlar sohasini innovatsion taraqqiyot talablariga mos rivojlantirishda, tadbirkorlik faoliyati, ayniqsa kichik biznesni o'rganish dolzarb hisoblanadi, investitsion muhit va raqobat muhitini yaxshilanishi, kichik biznes bilan davlat-xususiy sherikchiligi doirasida davlat xaridlari hajmini kengaytirilishi, yirik va kichik korxonalar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlanishi, innovatsiya jarayonlariga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish orqali ko'rishimiz mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, yetarli eksport salohiyatiga ega bo'lgan, biroq ayni paytda yanada rivojlanish uchun yetarli darajada kapitalga ega bo'lmagan muvaffaqiyatli va istiqbolli xizmatlar sohasidagi kichik korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlarni samarali xizmatlar sohasini rivojlantirishda ko'proq ish o'rnini yaratishga, jahon bozoriga kirish imkoniyatlarini oshirishga yordam



berib, mamkakatni eksport salohiyatini oshirishga va aholi daromadlarini oshishiga imkon yaratadi. Respublikada “O‘zbekiston-2030” strategiyasida qo‘yilgan maqsadlardan kelib chiqib, “... tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritish uchun eng qulay sharoitlar yaratish”, shu bilan birga “kichik va o‘rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyatlarini kengaytirish ... innovatsiyalar va start-up larni qo‘llab –quvvatlash” vazifalarini amalga oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, Xizmatlar sohasini innovatsion taraqqiyot talablariga mos rivojlantirishda, tadbirkorlik faoliyati, xizmatlar sohasida ayniqsa kichik biznesni va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlarini, o‘rganish dolzarb xisoblanadi, mamlakatimizda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunda davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so‘zlari bilan aytganda, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston. 2023.
2. O‘zbekiston – 2030 Strategik dasturi, 2023-yil 11-sentyabr
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PQ-300-son qarori, kuchga kirish sanasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari To‘g‘risida” qarori (12.09.2023).
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-28-12-2018>.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли фармони.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 Yil Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yilning 18-dekabrida Oliy Majlisga Murojaatnomasi Uza.Uz.
8. Александрова Е. А. Управление развитием малого промышленного предпринимательства в условиях глобализации экономики : автореф. дис. канд. экон. наук : 08.00.05 / Е. А. Александрова. - СПб., 2011. – 217
9. Stevenson, L. (2010). Private sector and enterprise development: Fostering growth in the Middle East and North Africa. Canada: IDRC Publications. The economic development of Spain / International Bank for Reconstruction and Development (IBRD) -Baltimore, 1967.
10. Адрианов В.Д. Специальные экономические зоны. Журнал “ЭКО”, 1997,(№3), С: 42.
11. Данько Т.Л. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве// ИНФРА-М.-1998. С:168.
12. Мустафакулов Ш.И. Инвестицион муҳит жозибадорлиги: назария, методология ва амалиёт. Монография Тошкент. “Iqtisod-Moliya”, 201. 326-бет.
13. Mirzaev, S. & Abdullayev, U. (2016). Xizmatlar Bozorida Innovatsion Texnologiyalar Va Kichik Biznes. Journal Of Economics And Business Studies, 6(2), 122-134
14. Xizmatlar sohasida innovatsion texnologiyalar va kichik biznesning rivojlanishiga oid maqola.
15. Bakhtiyarovna, U. O. (2024). Development Of Small Businesses Reducing Poverty In Julia. Journal Of Innovation In Scientific And Educational Research, 7 (2), 171-176.
16. Bakhtiyarovna, U. O. (2024). Assessment Of The Impact Of Digitalization On The Development Of Entrepreneurship And Small Businesses. Journal Of Innovation In Scientific And Educational Research, 7 (2), 177-182.
17. Scientist, M., & Bakhtiyarovna, U. O. (2023). Experience Of Foreign Countries In Small Business Development. The Journal Of Economics, Finance And Innovation, 758-766.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>